

## TIQXMMI Qarshi filialida mutaxassislik fanidan magistratura imtihonlari

Joriy yilning 16 avgust kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filiali magistratura mutaxassisligiga mutaxassislik bo'yicha maxsus fanlar majmuasidan imtihonlar boshlandi. 2021/2022-o'quv yili uchun Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida mavjud 6 ta magistratura mutaxassisliklariga 169 nafar magistr talaba hujjat topshirgan.



Bugun ya'ni, 18 avgust kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filiali Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish (tarmoqlar bo'yicha) magistratura mutaxassislik bo'yicha maxsus fanlar majmuasidan imtihonlar bo'lib o'tdi. Jarayonlar uzluksiz tarzda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining [imtihon.edu.uz](http://imtihon.edu.uz) sayti orqali to'g'ridan-to'g'ri translatsiya qilinmoqda. Shuningdek, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filiali magistratura kirish sinovi natijalari [tiamekb.uz](http://tiamekb.uz) sayti orqali e'lon qilib borilmoqda.

